

# Surxondaryodagi qator bog'chalarda ko'p tilli muqobil guruhlar ochildi



Maktabgacha ta'lim agentligi bilan hamkorlikda UNICEF xalqaro tashkiloti va Yevropa ittifoqi ko'magi asosida ta'lim sohasidagi ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati bo'lmagan jamoalar uchun Termiz shahri, Termiz va Muzrabot tumanlaridagi davlat bog'chalarida o'nta ko'p tilli innovatsion, inklyuziv muqobil guruhlarini ish boshladi.

Xususan, Termiz shahridagi 31-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida mazkur guruhlarining tantanali ochilish marosimi o'tkazildi. Tadbirda qo'shma delegatsiyasi a'zolari ishtirok etib, loyihaning maqsadi va undan ko'zlangan natijalar borasida ma'lumot berishdi.

Ushbu bog'chada ish boshlagan ko'p tilli muqobil guruhlariga yordamga muhtoj oilalarning 400 nafardan ortiq 3-6 yoshli farzandlari hamda viloyatda yashovchi afg'on bolalari qamrab olinadi.